



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI

TO'PLAMI
2-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
2-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 368-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.



5-SHO'BA. PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKADA ZAMONAVIY METODLAR VA TEXNOLOGIYALAR

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINI TARBIYALASHDA SHARQ PEDAGOGIK MEROSIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

Bobonorov Xusan Tolibjonovich

Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

x.bobonorov91@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq allomalari tomonidan qoldirilgan boy pedagogik merosning mazmuni va ahamiyati tahlil etiladi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tarbiyalash jarayonida Sharq mutafakkirlarining ilmiy va pedagogik qarashlaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi. Shuningdek, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda Sharq pedagogik merosidan samarali foydalanishning metodik usullari ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Sharq allomalari, pedagogik meros, tarix ta'limi, bo'lajak tarix o'qituvchilari, kasbiy kompetensiya, metodika, tarbiya.

Bugungi globallashtirish jarayonida ta'lim tizimining asosiy vazifasi – yoshlarni nafaqat bilimli, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxslar sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Bu jarayonda buyuk Sharq allomalari qoldirgan pedagogik meros beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Xaldun, Alisher Navoiy kabi allomalar inson tarbiyasi, ta'lim jarayonining mohiyati, axloqiy barkamollik, ilmiy izlanish va manbashunoslik masalalariga oid qimmatli qarashlarni ilgari surganlar. Ularning asarlari hozirgi kunda ham bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, ularni pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim manba vazifasini bajaradi.

Shu bois, bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida Sharq pedagogik merosidan samarali foydalanish ilmiy-amaliy dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Sharq allomalari pedagogik qarashlarining nazariy asoslari. Sharq mutafakkirlari o'z davrida ta'lim va tarbiyani inson kamolotining asosiy omili sifatida ko'rganlar. Ularning qarashlari orasida quyidagilar alohida o'rin tutadi:

– Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining axloqiy fazilatlarini muhim deb bilgan. Uning fikricha, haqiqiy ustoz o'z shogirdlariga nafaqat bilim, balki odob, sabr-toqat va axloqiy komillik namunasi bo'lishi kerak.

– Abu Rayhon Beruniy tarixiy manbalarning ishonchliligini tekshirish va voqealarni tanqidiy yondashuv asosida o'rganish zarurligini ta'kidlagan. Bu yondashuv bugungi kunda tarix o'qituvchilari uchun ham metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

– Ibn Sino tarbiya jarayonida shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish, bolalarning qiziqishi va qobiliyatiga mos ta'lim berishni asosiy tamoyil sifatida ko'rsatgan.

– Ibn Xaldun esa tarixni ijtimoiy fan sifatida talqin qilgan va uni jamiyat taraqqiyotidagi muhim omillar bilan bog'liq holda o'rganishni taklif qilgan.

– Alisher Navoiy komil inson tarbiyasini asosiy pedagogik maqsad sifatida ilgari surgan bo'lib, yoshlarni nafaqat bilimli, balki odob-axloqli va vatanparvar bo'lishga da'vat qilgan.

Bu qarashlar zamonaviy ta'lim jarayonida, xususan, tarix fanini o'qitishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilari tarbiyasida Sharq pedagogik merosining o'rni. Bugungi kunda tarix fani nafaqat tarixiy voqealarni o'rgatish, balki o'quvchilarda tanqidiy tafakkur, milliy g'urur, ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish kabi vazifalarni ham bajaradi. Shu ma'noda Sharq pedagogik merosining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish: tarixiy manbalarni tanqidiy o'rganish, tarixiy tafakkurni rivojlantirish.

2. Ma'naviy tarbiya: milliy qadriyatlar asosida yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik va adolatga sodiqlikni shakllantirish.

3. Pedagogik mahorat: Sharq mutafakkirlari ta'limiy qarashlari asosida innovatsion metodlardan samarali foydalanish.

Sharq pedagogik merosidan samarali foydalanish usullari. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tarbiyalash jarayonida Sharq mutafakkirlarining merosidan foydalanishning quyidagi usullari samarali hisoblanadi:

– Manbashunoslik yondashuvi: talabalarni Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Xaldun va Navoiyning asarlari bilan tanishtirish, ularning ilmiy qarashlarini tahlil qildirish.

– Integrativ yondashuv: tarix darslarini pedagogika, falsafa, etika fanlari bilan bog'lab o'qitishda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish.

– Muammoli ta'lim: allomalar fikrlaridan kelib chiqqan holda muammoli savollar ishlab chiqish va ularni talabalar bilan birgalikda hal qilish.

– Rol o'yinlari va davra suhbatlari: tarixiy shaxslar faoliyatini sahnalashtirish orqali talabalarni faol o'quv jarayoniga jalb qilish.

– Axborot texnologiyalari asosida foydalanish: 3D modellash, elektron dars ishlanmalari va virtual ta'lim muhitlari orqali Sharq pedagogik merosini ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

Sharq pedagogik merosidan samarali foydalanish bo'lajak tarix o'qituvchilarini quyidagi jihatlar bo'yicha rivojlantiradi:

– kasbiy kompetensiyaning oshishi;

– tanqidiy va ijodiy tafakkurning shakllanishi;

– ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mustahkamlanishi;

– zamonaviy metodik yondashuvlardan samarali foydalanish ko'nikmalarining rivojlanishi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tarbiyalashda Sharq pedagogik merosidan foydalanish ularning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda beqiyos manba

hisoblanadi. Mutafakkirlar merosi asosida shakllangan tarix o'qituvchilari nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarni ma'naviy yetuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalovchi komil shaxs bo'lib yetishadilar. Shu bois, Sharq pedagogik merosini zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'lajak tarix o'qituvchilari tayyorlash metodikasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Forobiy A.N. "Fozil odamlar shahri". – Toshkent: Fan, 1993.
2. Beruniy A.R. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". – Toshkent: Fan, 1968.
3. Ibn Sino A. "Donishnoma". – Toshkent: Fan, 1980.
4. Ibn Xaldun A. "Muqaddima". – Toshkent: Fan, 2009.
5. Navoiy A. "Mahbub ul-qulub". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
6. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Yo'ldoshev J.G'., Hasanboeva O. "Pedagogika tarixi". – Toshkent: Fan, 2012.
8. Qodirov A. "Sharq mutafakkirlari pedagogik merosi". – Toshkent: O'qituvchi, 2016.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ENERGETIKA SOHASI BO'YICHA BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING BOSQICHLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Hafizov Erkin Alimboy o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bo'lajak energetiklarga kasbiy faoliyatga tayyorlashda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni o'rgatishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli orqali raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni va muhandislarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kasbiy, raqamli, muhandis, model, texnologiya, axborat.

Dunyoda ta'limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari orasida jamiyatni, ta'limni raqamlashtirish asosida barcha sohalarining raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Jahonda ta'limni raqamlashtirish va axborotlashgan jamiyatning ehtiyojini hisobga olgan holda kadrlarni tayyorlash masalasi hamisha mukammal masala bo'lib kelmoqda.

Shu sababli, Energetika sohasi bo'yicha talabalarni tayyorlashda raqamli ta'lim texnologiyalarning samaradorligini oshiruvchi metodikalar ishlab chiqish, energetika sohasining bo'lajak mutaxassislarini nazariy va amaliy bilimlarini sintez qiluvchi yangi o'quv platformalarini yaratish.